

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA IJTIMOIIY HAYOT

Gulnora Rahmatova,

GulDU, O'zbek filologiyasi yo'nalishi

52-23-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola Abdulla Qahhorning hikoyalari, ulardagi ijtimoiy hayot tasviri va tavsifi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda yozuvchi mahorati muammosiga ham e'tibor qaratilgan. Abdulla Qahhorning ijodida hikoya janri yaqqol ajralib turishi, ularningi boshqa ijodkorlarning hikoyalaridan tubdan farq qilishi xususida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'z: hikoyalar, yozuvchi uslubi, badiiy mahorati, individuallik, realism, dramatism, obraz, epigraf va h.k.

Keywords: stories, writing style, artistic skill, individuality, realism, dramatism, image, epigraph, etc.

Abstract. This article is devoted to the stories of Abdulla Qahhor, the issues of the depiction and description of social life in them, and also focuses on the problem of writing skill. The clear distinction of the story genre in Abdulla Qahhor's work, their fundamental difference from the stories of other authors, is also discussed.

O'zbek xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida Qo'qonda temirchi Abduqahhor oilasida dunyoga kelgan. Bolaligi Qo'qon va uning atrofida o'tgan. Oqqo'rg'on qishlog'idagi Muhammadjon qorining "Usuli savtiya" maktabida tahsil ko'radi. Oilasi Qo'qonga qaytib kelgach Istilo nomli Sho'ro maktabiga o'qishga kiradi. Undan keyin internat "Komunna", "Namuna" maktablarida, so'ng bilim yurtlarida tahsil ko'radi. Bilim yurtlarida tahsil olib yurgan kezlari uning she'rlari va maqolalari tez-tez chop etilib turadi. Shu tariqa adabiyot olamiga kirib keladi.

Abdulla Qahhorning hikoya janriga kirib kelishi 1926-yil Gorkiy asarlari bilan tanishish va bu asarlar unda katta taassurot qoldirib, qiziqish uyg'otib, hikoya yozish istagini paydo qila boshlagan.

"Men rus tilini Gorkiy asarlari bo'yicha o'rgandim, deb g'urur bilan ayta olaman. "Chalkash" hikoyasini o'qib chiqqach menda hikoya yozishga havas uyg'ondi. "Chalkash" men uchun ijod namunasi, o'qish, o'rganish, ishimda qo'limdan tushmaydigan kitobim bo'lib qoldi", – deydi Abdulla Qahhor.

Abdulla Qahhorning nazmdan tortib nasrgacha bo'lgan keng qamrovli ijodida hikoya janri yaqqol ajralib turadi. Uning hikoyalari boshqa ijodkorlarning hikoyalaridan tubdan farq qiladi. Adib hikoyalarida kam siz bilan katta ma'noni kasb etuvchi, sodda, ravon, xalqona tildan foydalanib o'zgacha ruh, pafos ufurib turadigan, o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan mavzularni yoritadi. U hikoyaga kiritgan har bir detal

shunchaki kiritilmagan, barchasining zamirida ma'lum bir maqsad va mohiyat hamda o'z zimmasiga yuklatilgan yuk mavjud.

Abdulla Qahhorning har bir hikoyasida davrning ijtimoiy muammolari goh kuchli dramatism, goh achchiq satira ostida gavdalantiradi va uning yechimi mavhum qoldirilib kitobxonning o'ziga havola etiladi.

Abdulla Qahhorning hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, hikoyalarda qo'llanilgan epigraflarga alohida to'xtalib o'tishimiz darkor. Yozuvchi epigraflardan unumli va o'rinli foydalanadi. Kitobxon hikoyani o'qimas-da, epigrafdan butun boshli hikoya mazmuni anglashilinadi. Jumladan, "Bemor" hikoyasidagi "Osmon – yiroq, yer – qattiq", "Anor" hikoyasidagi "Uylar to'la non, och-nahorim, bolam, Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim, bolam" epigraflari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy hayotning naqadar o'g'ir ahvolda ekanligi tasvirlanadi.

Ijodkorning qizg'in bahs va munozalarga sabab bo'lgan, yuqorida tilga olingan "Bemor" va "Anor" hikoyasida jamiyat keltirib chiqargan ijtimoiy qashshoqlik va uning oqibatlarini haqida yozadi. Ushbu hikoyalar bir necha qahhorshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan. Birgina buyuk tanqidchi, qahhorshunos olim Ozod Sharafiddinovning tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, olim hikoya haqida quyidagicha xulosaga keladi: "Turobjon va xotining fojiasi baxtsizlikning sababi – ijtimoiy tengsizlik". Shu o'rinda Sotiboldi va uning xotini hayotida yuz bergan mudhish baxtsizlikka ham ijtimoiy tengsizlik sababchi deya olamiz. Olim har ikkala hikoyani ham ijtimoiy tabaqalashish talablariga ko'ra: insonlarning ijtimoiy jihatdan baravar yashashi jihatidan tahlil qiladi. Ammo, afsuski, hech bir zamonda, hech bir jamiyatda fuqarolar ijtimoiy jihatdan teng huquqli bo'lgan emaslar. Gapimizning isboti sifatida quyida "Bemor" hikoyasidan olingan parchalarga diqqat qarataylik: "...Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kul rang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi..." Ushbu jummalardan shunday fikrlar anglashiladiki, Sotiboldi ayolini davolatish uchun pulga muhtoj bo'lib, pul topolmay sarson kezib yurgan bir paytda, qachonlardir Abdug'aniboy Sotiboldining ayoli ayni damda muhtoj bo'lgan o'sha shifoxona qimmat bo'lganidan Sim – Farg'onaga ketgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining atoqli va zabardast yozuvchisi Abdulla Qahhor davr bilan hamnafas yashaydi. U hech qachon o'z manfaati uchun qalam tebratmaydi. O'z haq-huquqlarini bilmagan, o'zligini tanib ulgurmagan, g'aflat uyqusida qolgan o'sha davr o'zbek xalqiining hayotini ko'rsatib beradi. Doimo xalq dardi bilan yonib-kuyib yashaydi. Davrning dolzarb masalalarini real tasvirlar orqali,

bagʻzida esa achchiq drammatizm va kulgu ostidagi kinoyalar orqali fosh etib kitobxonlar qalbiga kirib borgan.

Adabiyotlar:

1. “Истеъдод жилолари”. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976, 137-113-114 бетлар.
2. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2008. 6-бет.
3. А.Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1987 йил, 15-бет.
4. А.Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989, 199-200 бетлар.
5. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 1998. 124-бет
6. В.Смирнова. Фарғоналик Абдулла Қаҳҳор. – Т.: Дружба народов, 1963, 7-сон.
7. Шарафиддинов О.А.Қаҳҳор. – Т.: “Ёш гвардия” нашриёти. 1988. 123-бет.